

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

**Moydinova Elmira Kamariddinovna**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, tayanch doktorant*

*Tel: +998900292535*

*e-mail: [mirlife645@gmail.com](mailto:mirlife645@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining mazmun-mohiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'quv jarayonni amalga oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *maktabgacha ta'lim, ingliz tili, kasbiy kompetensiya, multimediya, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Zamonaviy dunyoda ta'limning yangi sifatiga erishish uchun taklif qilinayotgan imkoniyatlar, bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Davlatimiz ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uning moddiy-texnik bazasini ta'lim jarayonida internet texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan zamonaviy dasturiy ta'minot bilan boyitish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu jumladan, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1]. Axir, jahon amaliyotida chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalaridan foydalanish, o'qituvchilarni mavjud axborot makoniga yo'naltirish, kasbiy mahoratini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Chunonchi, maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyasini va kreativligini shakllantirishda zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining xorijiy tilni, mashg'ulot o'tish texnologiyalarini, zamonaviy AKT vositalarini o'zlashtirishi kabi ko'nikmalarga ega bo'lish darajasida tarbiyalashda alohida o'rin tutadi.

Rus olimi ta'kidlashicha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu kompyuter, internet tizimi va turli xil kompyuter ilovalaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalardir [2]. Elektron vositalarning ta'lim va tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib, "tafakkurning ayrim turlarini (masalan, ko'rgazmali-obrazli, nazariy) rivojlantirish jarayonlarini boshlash; xotira, e'tibor, kuzatishni rivojlantirish jarayonlarini kuchaytirish;

yetakchi fazilatlarini shakllantirish” imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratadi [3; 3-4–b.]. Shu sababli, rivojlantiruvchi ta’lim g’oyalarini amalga oshirish uchun, o’rganuvchining shaxsini rivojlantirish, xususan, shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun, talaba o’z faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyatini shakllantirish, ham o’quv, ham amaliy masalalarni hal qilish yo’llari va usullarini topish strategiyasini ishlab chiqish uchun axborot resurslaridan foydalanishning muayyan uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb bo’lib qoladi.

Ingliz tili fan sifatida o’ziga xos xususiyatlariga ega bo’lib, barcha turdagi texnik vositalar yordamidan foydalanishni nazarda tutadi. Aslida, ingliz tilini o’qitishda multimediya va raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini qo’llay boshlagani bejiz emas. Chunki, AKTdan foydalanish o’quv jarayonini tezlashtiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi, mavzuga bo’lgan qiziqishni oshiradi, o’quv jarayonini individuallashtirish va haqqoniy baholashning imkonini beradi. Shungdek, maktabgacha ta’lim bo’lajak ingliz tili o’qituvchilariga maxsus dasturlar asosida bog’cha tarbiyalanuvchilarining ingliz tilini o’rganishlarida ijtimoiy tasavvurlarini kengaytiruvchi amaliy mashg’ulotlar tizimi va texnologiyasining takomillashtirilishiga alohida e’tibor berish kerak. Zero, kelajakda maktabgacha ta’lim tizimida ishlaydigan mutaxassislar bog’cha bolalariga mos ravishda o’z o’quv kontentlarini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yarata olishlari darkor.

Axborot va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’lim usuli talabalarning bilim va ko’nikmalarini to’g’ri baholashga yordam beradi, ta’limning yangi, innovatsion shakli va usullarini izlashga undaydi, ijodkorlikka rag’batlantiradi. Oliy ma’lumot olish jarayonida ushbu ta’lim ko’nikmalarini rivojlantirish uchun, masalan, internet, veb-texnologiyalarning (veb-xizmatlar, ta’lim veb-resurslari, tarmoqlar) o’quv imkoniyatlaridan foydalanishni o’z ichiga olgan axborot va ta’lim maydonlari ustuvor hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, zamonaviy axborot texnologiyalari deganda ilmiy, ijtimoiy, ta’lim, sohalarida axborot faoliyatini raqamlashtirishning barcha usullari va vositalarini tushunamiz. Veb 2.0 texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limning muvaffaqiyatli ishlashi va amalga oshirilishi, eng muhim shartlar mavjud bo’lganda mumkin bo’ladi:

- o’qituvchi va talabaning axborot madaniyati;
- axborot-ta’lim muhiti;
- talabaning o’quv faoliyatida AKTdan foydalanishga barqaror motivasiyasi;
- o’qituvchi va talabaning AKTdan foydalanishga tayyorligi va psixologik savodxonligi;
- o’quv jarayonining kompyuter xavfsizligi va hokazo.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, mehnat bozorida o’z o’rnini topishida, raqobatbardoshligini ta’minlashda zamonaviy axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda bo’lajak ingliz tili o’qituvchilari ushbu yangi imkoniyatlardan keng foydalanishi, yangi vazifalarni o’z oldiga qo’yishi, ya’ni davr talablarini his etishi hamda o’z amaliy faoliyatida to’g’ri qo’llay olishi dolzarb ekanligini ko’rsatadi.



### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. Elektron resurs: <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori. Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/3334234>
3. Fursevich I. A. Osobennosti ispol'zovanija IKT pri obuchenii inostrannym jazykam: sb. nauchnyh trudov regional'nyh prepodavatelej inostrannyh jazykov / I. A. Fursevich. – M.: Prosveshhenie, 2005. – 256 s.
4. Moydinova, E. (2021). THE ROLE OF MODERN ENGLISH TEACHING TECHNOLOGIES IN THE AGE OF DIGITALIZATION. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Robert I.V. Sovremennye informacionnye tehnologii v obrazovanii: didakticheskie problemy; perspektivy ispol'zovanija. – M.: IIO RAO, 2010. – 140 s.